

ALISHER JO'RAYEV

ISH YURITISH ASOSLARI

fanidan

seminar mashg'ulotlar uchun

USLUBIY KO'RSATMA





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ARXIVSHUNOSLIK KAFEDRASI

ISH YURITISH ASOSLARI

fanidan

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN

USLUBIY KO'RSATMA

Namangan-2018

Ushbu uslubiy ko'rsatma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil 22-yanvardagi 1-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ish yuritish asoslari" fanining na'munaviy dasturi talablari asosida ishlab chiqildi.

Mazkur uslubiy ko'rsatma oliy o'quv yurtlari Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishining bakalavriat bosqichi talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, unda arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarga oid atamalar bo'yicha bilimlar, ko'nikma va malakalar berish belgilab berilgan.

Ma'sul muharrir:

A.Sarimsoqov

tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

S.Boltaboyev

tarix fanlari nomzodi

T. Qozoqov

tarix fanlari nomzodi, dotsent

Uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2018-yil 21-fevraldagi 7-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

A. Jo'rayev

Ish yuritish asoslari. (Seminar mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatma). –Namangan, 2018. – 44 b.

© Namangan davlat universiteti

KIRISH

Ushbu uslubiy ko'rsatma davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar, muassasalarda ish yuritish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash, asosiy faoliyat va shaxsiy tarkibga oid hujjatlarni ramiylashtirish tartib-qoidalarini qamrab oladi. Shu bilan birga, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilgan talabachilarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish kabi dolzarb masalalarni o'rgatadi.

Shuningdek, "Ish yuritish asoslari" fani ish yuritish va arxiv ishi haqidagi bilimlarni qaror topshirish, mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. "Ish yuritish asoslari" fani bo'yicha tuzilgan mazkur seminar mashg'ulotlar uchun tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma DTS va fanning namunaviy o'quv dasturida keltirilgan mavzular asosida tuzildi.

Mazkur uslubiy ko'rsatma seminar mashg'ulotlari mavzulari va ularning qisqacha mazmuni, mavzu rejalari, tayanch konspekti, mavzuga doir tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati, seminar mashg'ulotlarni o'tishda qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik texnologiya, mustaqil ish, test va atamalar izohli lug'atini o'z ichiga oladi.

1 - MAVZU: TARIXIMIZNING TURLI DAVRLARIDA HAR XIL YOZUVLARDA BITILGAN HUJJATCHILIK TARIXI VA DAVLAT BOSHQARUVIGA OID MANBALAR TARIXI.

REJA:

1. Turli davrlarida har xil yozuvlarda bitilgan hujjatchilik tarixi.
2. Yorliqlar va ularning turlari. O'rta Osiyo xonliklarida ish yuritish xizmati.
3. 1924-yil 31-dekabrda qabul qilingan "Ishlarni o'zbek tilida yuritish to'g'risida" gi Qaror. Sovet davrida ish yuritish tizimining holati.

Etibor bering!

Hujjatchilik o'zining uzoq tarixiga ega. Hujjatlar qadim zamonlardan beri olib borilgani ma'lum. Yozuvning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda hujjatchilik rivojlana boshlangan, u kishilar o'rtasidagi muomala, fikr almashuv va bir-birini tushunish vositasini bajargan. Hujjatchilik asrlar mahsuloti bo'lib, u jamiyat tarixi bilan bevosita bog'liq. Ishlab chiqarish va davlat apparatidagi ish yuritishning o'zgarishi bilan hujjatchilik ham rivojlanadi va takomillashadi.

Jamiyatning taraqqiyoti hujjatchilik tizimida ham ma'lum o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Masalan: ibtidoiy tuzum davrida ham jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlardagi muhim holatlarni qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar. Turli davrlarida har xil yozuvlarda bitilgan hujjatchilik tarixi. Yorliqlar va ularning turlari. O'rta Osiyo xonliklarida ish yuritish xizmati. 1924-yil 31-dekabrda qabul qilingan "Ishlarni o'zbek tilida yuritish to'g'risida" gi Qaror. Sovet davrida ish yuritish tizimining holati.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: "Loyiha", "Bahsmunozara", "Muammoli vaziyat", "T" shakl, "BBB" shakl, "Doira stoli", "Kichik guruhlarda ishlash".

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Архив иши тўғрисида" ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги "Архив иши бўйича меъёрий хужжатларни тасдиқлаш тўғрисида" ги, 482-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси архив ишлари янада такомиллаштириш тўғрисида”ги, 49-сонли Қарори.

4. Маҳмудов Н., Мадвалиева А., Маҳкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.

5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.

6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

2-MAVZU: ISH YURITISH HAQIDAGI DASTLABKI TUSHUNCHALAR.

REJA:

1. Ish yuritish tili va uslubi.
2. Hujjatlarning turlari va xususiyatlari.
3. Hujjatlar matnining eng muhim zaruriy qismlari va ularni rasmiylashtirish.

Etibor bering!

O'zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirish, eng avvalo, o'zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini malum darajada aks ettirishi zarur. Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman faoliyati ish qog'ozlarini tuzish bilan bog'liq har bir kishi o'zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini mukammal egallagan bolishi kerak.

Ish yuritish tili va uslubi. Xujjatlar matniga qo'yilgan eng muxim talablar. Xujjat turlari va ularning xususiyatlari. Xujjatlarning mazmuniga ko'ra bo'linishi. Xususiy, na'munali xujjatlar. Xizmat xujjatlari, shaxsiy xujjatlar. Tashqi va ichki xujjatlar. Xujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasiga ko'ra tavsiflanishi. Xujjat turlari. Farmoynsh xujjatlari xususiyati. Tashkiliy xujjatlar turlari. Xizmat yozishmalari va ularning xususiyatlari. Ma'lumotsimon-axborot xujjatlari. Xujjatlarning qo'llanish doiralari. Xujjatlardagi zaruriy qism (rekvizit)lar va ularni rasmiylashtirish. Rekvizit (zaruriy qism)

tushunchasi. Rasmiy blankalar va ulardagi rekvizitlar. Farmoyish va tashkiliy xujjat rekvizitlari. Xizmat yozishmalari rekvizitlari. Ma'lumotsimon-axborot xujjatlari rekvizitlari.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: "Loyiha", "Bahsmunozara", "Muammoli vaziyat", "T" shakl, "BBB" shakl, "Doira stoli", "Kichik guruhlarda ishlash".

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Архив иши тўғрисида"ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги "Архив иши бўйича меъерий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги, 482-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси архив ишини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги, 49-сонли Қарори.

4. Маҳмудов Н., Мадвалиева А., Махкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.

5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.

6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

3-MAVZU: MA'LUMOT TUSIDAGI AXBOROT HUJJATLARI: ARIZA, BILDIRISHNOMA, E'LON VA VASIYATNOMA.

REJA:

1. Ariza.
2. Bildirishnoma, bildirish.
3. E'lon.
4. Vasiyatnoma.

Etibor bering!

Muayyan muassasalarga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Ariza ijtimoiy hayotda eng ko'p qo'llaniladigan va keng tarqalgan ish qog'ozidir. Maktab o'quvchisi va talaba, ishchi va yuqori mansabdor

shaxs - jamiyatning barcha a'zosi ariza yozishdan xoli emas. Ariza yozuvchilarning yoshi va ijtimoiy vazifasi turlicha ekan, ariza yo'llanayotgan muassasalar va idoralar ham xilma-xildir. Arizalar bog'cha mudirasiga, maktab direktoriga, oliy o'quv yurti rektoriga, magazin mudiriga, tuman (shahar) rahbariyatiga, xullas, oddiy arizachining taklif, iltimos yoki shikoyatini ko'rib chiqib, hal qila oladigan har qanday idora, har qanday mansabdor shaxs nomiga yozilishi mumkin.

Bildirishnoma - Muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan bog'liq muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabar berish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot. Unda, odatda, bayon qilinayotgan masalalar bo'yicha tuzuvchi (yozuvchi)ning takliflari aks etadi. Kimga yo'llanishiga qarab bildirishnoma ichki va tashqi turlarga ajraladi.

E'lon - Ko'pchilikni yoki ma'lum guruhdagi shaxslarni yaqin orada (kelgusida) bo'ladigan biron-bir tadbir-majlis, uchrashuv, suhbat, shuningdek, ishga, o'qishga qabul qilish va boshqalar haqida xabardor qilish uchun qo'llanuvchi yozma axborot.

Vasiyatnoma - bir shaxsning (vasiyat qiluvchining), u vafot etgan taqdirda, o'ziga qarashli bo'lgan mol-mulkni tasarruf etish bo'yicha xohish-irodasi bayon qilingan hujjatdir.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: "Loyiha", "Bahsmunozara", "Muammoli vaziyat", "T" shakl, "BBB" shakl, "Doira stoli", "Kichik guruhlarda ishlash".

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Архив иши тўғрисида"ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги "Архив иши бўйича меъёрий хужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги, 482-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси архив ишини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги, 49-сонли Қарори.

4. Махмудов Н., Мадвалиева А., Махкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.

5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.

6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

4-MAVZU: DALOLATNOMA, ISHONCHNOMA, MA'LUMOTNOMA VA TAVSIFNOMA.

REJA:

1. Dalolatnoma.
2. Ishonchnoma.
3. Ma'lumotnoma.
4. Tavsifnoma, tavsiiyanoma.

Etibor bering!

Dalolatnoma-Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir bo'lib o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, xatti-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat. Dalolatnoma tuzishda xilma-xil maqsadlar ko'zlanadi, lekin uni tuzishdan asosiy maqsad sodir bo'lgan voqea-hodisalarni yoki mavjud holatni huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Bir qancha hollarda dalolatnoma tuzish maxsus huquqiy me'yorlar bilan qat'iy belgilangan. Masalan, korxonalarining hisob-kitob bo'limlari faoliyatida dalolatnomalar avvaldan belgilangan mazmun va davriylikka asosan tuziladi va huquqiy jihatdan muhim o'rin tutadi.

Ishonchnoma - muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat. Ishonchnomalar o'z mazmuniga ko'ra, mol-mulkni boshqarish, pul va moddiy-buyum boyliklarini olish, sud hamda notarial idoralarda, shuningdek, boshqa davlat va nodavlat idoralarda ish olib borish va boshqa ishlarni amalga oshirishni ifodalaydi.

Ma'lumotnoma - bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish - axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjat. Ma'lumotnomalar, odatda, yuqori idora, mansabdor, jismoniy va yuridik shaxslarning ko'rsatmasi, talabi yoki iltimosiga ko'ra tuziladi hamda biron-bir

masalada iltimosni qondiradigan axborot va ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

Ma'lumotnoma o'z xususiyati va mazmuniga ko'ra ikkiga: xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnomaga bo'linadi.

Tavsifnoma - Ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat. Tavsifnoma muassasa ma'muriyati yoki jamoat tashkilotlari (agar ular mavjud bo'lsa) tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar uchun (o'quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar uchun ketishda, lavozimga tayinlashda yoki shahodatlantirish va boshqa hollarda) beriladi.

Tavsiyanoma - biror shaxsni malum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjat. U ma'muriyat yoki alohida shaxs tomonidan berilishi mumkin. Tavsiyanoma matnida tavsiya qilinayotgan shaxsning xususiyatlari-mutaxassis sifatidagi malakasi, oilaviy, ahloqiy jihatlari va faoliyatiga baho beriladi, u tavsiya etilayotgan lavozimi yoki tashkilotga a'zo bo'lishga munosib ekanligi yuzasidan ishonch bildirishladi.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: "Loyiha", "Bahsmunozara", "Muammoli vaziyat", "T" shakl, "BBB" shakl, "Doira stoli", "Kichik guruhlarda ishlash".

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Архив иши тўғрисида"ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги "Архив иши бўйича меъёрий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги, 482-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси архив ишини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги, 49-сонли Қарори.

4. Маҳмудов Н., Мадвалиева А., Маҳкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.

5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.

6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

5-MAVZU: BAYONNOMA, TARJIMAI HOL, TUSHUNTIRISH XATI VA HISOBOT.

REJA:

1. Bayonnoma va undan ko'chirma.
2. Tarjimai hol.
3. Tushuntirish xati, tilxat.
4. Hisobot.

Etibor bering!

Bayonnoma - turli yig'ilish, kengash va boshqa turdagi anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat.

Hisobot - muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, tadbirlar, xizmal va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Tushuntirish xati - u yoki bu sabablar oqibatida qilingan va qilinmay qolgan ishlar haqida yetarlicha ma'lumot beruvchi hujjat.

Tilxat - u yoki bu narsani olganligi yoxud qabul qilganligi, berganligi borasida javobgarlikni o'z zimmasiga olish uchun berilgan hujjat.

Tarjimai hol - kishilarning shaxsiy hayoti va faoliyati bilan aloqador bo'lgan ma'lumot tusidagi hujjat.

Bayonnoma va undan ko'chirma. Tarjimai hol. Tushuntirish xati, tilxat. Hisobot.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: “Loyiha”, “Bahsmunozara”, “Muammoli vaziyat”, “T” shakl, “BBB” shakl, “Doira stoli”, “Kichik guruhlarda ishlash”.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Архив иши тўғрисида”ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги “Архив иши бўйича меъёрий хужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги, 482-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси архив ишини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги, 49-сонли Қарори.

4. Маҳмудов Н., Мадвалиева А., Махкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.

5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.

6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

6-MAVZU: FARMYOYISH HUJJATLARI.

REJA:

1. Buyruq va buyruqdan ko'chirma.
2. Ko'rsatma.
3. Farmoyish.

Etibor bering!

Buyruq - mazkur huquqiy hujjat muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llanadi. Mohiyat e'tibori bilan buyruqlar ikkiga bo'linadi: asosiy faoliyatga oid va kadrlar (shaxsiy) tarkibiga oid. Ular ketma-ket tartibda alohida raqamlanadi va ayrim saqlanadi.

Buyruqdan ko'chirma - Amaliyotda asosiy faoliyatga oid buyruqlardan ko'chirma tayyorlashga ehtiyoj tug'iladi. Hujjatlardan ko'chirma - asl hujjatning muayyan bir qismidir. Buyruqdan ko'chirmada buyruqning farmoyish qismidan faqat aniq holat uchun zarur bo'lgan ma'lumot olinadi. Buyruqdan ko'chirma, odatda, blankaga yozilib, tasdiqlab beriladi. “Asliga to'g'ri” so'zi bilan kotib (yoki buyruqdan ko'chirma beruvchi shaxs) imzo chekadi.

Ko'rsatma - idoralarda axborot-metodik tusdagi masalalar, shuningdek, buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjat.

Farmoyish (распоряжение) - Muassasa ma'muriyati (direktor, uning o'rinbosarlari, bosh muhandis, uning o'rinbosarlari), shuningdek, bo'limlarning rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul

qilinidigan hujjat. Odatda farmoyishlarning amal qilish muddati cheklangan bo'lib, bo'limlarning tor doirasiga, ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo'ladi.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: "Loyiha", "Bahsmunozara", "Muammoli vaziyat", "T" shakl, "BBB" shakl, "Doira stoli", "Kichik guruhlarda ishlash".

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Архив иши тўғрисида"ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги "Архив иши бўйича меъёрий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги, 482-сонли Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси архив ишини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги, 49-сонли Қарори.
4. Маҳмудов Н., Мадвалиева А., Маҳкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.
5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.
6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

7-MAVZU: TASHKILY HUYJATLAR.

REJA:

1. Guvohnoma.
2. Yo'riqnoma.
3. Nizom-ustav.
4. Shartnoma.

Etibor bering!

Guvohnoma - Muayyan shaxsning xizmat va boshqa xolatlarni, shuningdek, biror ishga (masalan, taftish o'tkazishga) oid vakolatini ko'rsatuvchi hujjat. Har bir kishi ishga qabul qilinganda kadrlar bo'limi

(yoki kadrlar ishi bilan shug'ullanuvchi lavozimdagi shaxs) dan guvohnoma oladi.

Yo'riqnoma - qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni tushuntirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjat. Muassasa, korxonalar, tashkilot, yuridik shaxslar va boshqalar (ularning bo'linmalari, xizmatlari), mansabdor shaxs va fuqarolarning tashkiliy, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va boshqa faoliyat tomonlari xususida tartib-qoida o'rnatish maqsadida davlat yoki jamoat boshqaruv organlari tomonidan chiqariladi (yoki ularning rahbarlari tasdiqlaydi).

Nizom-ustav - tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari, kichik yoki qo'shma korxonalar va shu kabilarning tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilish tartibini belgilaydigan huquqiy hujjat. Nizom ayrim mansabdor shaxslarga va turli tadbirlar (ko'rik, musobaqa, tanlov va boshqalar)ga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Shartnoma - ikki yoki undan ortiq tomonlarning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvdir. Boshqacha qilib aytganda, shartnoma tomonlarning biron-bir munosabatlar o'rnatish haqidagi kelishuvi (bitimi)ni qayd etuvchi va munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatdir.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: "Loyiha", "Bahs-munozara", "Muammoli vaziyat", "T" shakl, "BBB" shakl, "Doira stoli", "Kichik guruhlarda ishlash".

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Архив иши тўғрисида"ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги "Архив иши бўйича меъерий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги, 482-сонли Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси архив ишини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги, 49-сонли Қарори.
4. Маҳмудов Н., Мадвалиева А., Маҳкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.
5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.

6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

8-MAVZU: XODIMLAR FAOLIYATIGA DOIR HUJJATLAR.

REJA:

1. Mehnat daftarchasi.
2. Shaxsiy hujjatlar yig'majildi.
3. Kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa

Etibor bering!

Mehnat daftarchasi - O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga binoan, xodimning mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjatdir. Ish beruvchi korxonada besh kundan ortiq ishlagan barcha xodimlarga mehnat daftarchasini yuritishi shart, o'rindoshlik asosida ishlovchilar bundan mustasno. Ish beruvchi mehnat daftarchasiga ishga qabul qilish, doimiy ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni yozishi shart. Xodimning iltimosiga ko'ra, mehnat daftarchasiga o'rindoshlik asosida ishlagan va vaqtincha boshqa ishga o'tkazilgan davrlar haqidagi yozuvlar kiritiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari (sabablari) mehnat daftarchasiga yozilmaydi (81-modda).

Shaxsiy hujjatlar yig'majildi - xodim haqida mumkin qadar batafsil ma'lumot beradigan hujjatlar majmui. Bunday yig'majildlar muassasa faoliyatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Ishga qabul qilish haqida buyruq chiqqandan so'ng, xodimning shaxsiy hujjatlar yig'majildi rasmiylashtiriladi.

Kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa - bu hujjat ishga qabul qilishda asosiy hujjat hisoblanadi. Unda xodimning tarjimai holi, ma'lumoti, mehnat faoliyatining boshidan beri bajargan ishlari, chet elda bo'lishi, saylov organlarida ishtiroki, oilaviy holati va boshqalar haqida savollar bo'ladi.

Shaxsiy varaqa xodim ishga kirayotganda o'z qo'li bilan to'ldiriladi. Har bir savolga to'liq va aniq javob berilishi lozim; javobda qisqartmalar qo'llashga yo'l qo'yilmaydi; aniq-ravshan, tuzatishlarsiz yoziladi.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: "Loyiha", "Bahsmunozara", "Muammoli vaziyat", "T" shakl, "BBB" shakl, "Doira stoli", "Kichik guruhlarda ishlash".

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Архив иши тўғрисида"ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги "Архив иши бўйича меъриий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги, 482-сонли Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси архив ишини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги, 49-сонли Қарори.
4. Маҳмудов Н., Мадвалиева А., Махкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.
5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.
6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

9-MAVZU: XIZMAT YOZISHMALARI.

REJA:

1. Taklifnoma, telegramma, telefonogramma.
2. Xatlar.
3. Diplomatik va tijorat yozishmalari.
4. Taklifnoma.

Etibor bering!

Manzil - muayyan joyning joylashgan yeriga aniqlik kirituvchi ma'lumot.

Taklifnoma - biror-bir tantanali tadbirga taklif etish uchun qo'llaniladigan yozma axborot.

Telegramma - yuridik shaxslar va xodimlarga biror ma'lumotni yetkazuvchi hujjat.

Telefonogramma - shoshilinch xabarning matnini belgilangan joyga telefon orqali yetkazish. Yuridik shaxslar va xodimlarga biror tadbirni tashkil etishga chaqirish hujjati.

Modemogramma - o'ta maxfiy yoki shoshilinch xabarning matnini belgilangan joyga internet elektron pochta orqali yetkazish.

Xatlar - davlatlar va shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga oid yozishmalar, muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjat. Xat orqali turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushuntirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi.

Axborot xati - ko'zlangan maqsad, ma'lum tashkilot yoki muassasa yoxud shaxsni amalga oshirishlayotgan tadbirdan xabardor etishga qaratilgan hujjat.

Da'vo xati - ma'lum bir muassasaning boshqa bir idora yoki transport tashkilotlariga nisbatan talab va e'tirozlari bayon qilingan xat (reklamatsiya).

Ilova xati - xatni qabul qilib oluvchilarni jo'natiladigan hujjatlar haqida yozma xabardor qilish uchun qo'llanuvchi qisqacha xabar qog'ozidir.

Iltimos xati - muassislarning ma'lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa muassasalarga rasmiy xat orqali bildirgan iltimos hujjati.

Kafolat xati - muayyan bir shart yoki va'dani tasdiqlash maqsadida tuzilgan xat.

Diplomatik yozishma - yuridik shaxslar yoki xodimlarning davlatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yishga mo'ljallangan rasmiy hujjati.

Tijorat yozishmasi - yuridik shaxslar yoki xodimlarning savdo-sotiqqa oid global muammolarni hal etishga oid hujjati.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: "Loyiha", "Bahs-munozara", "Muammoli vaziyat", "T" shakl, "BBB" shakl, "Doira stoli", "Kichik guruhlarda ishlash".

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Архив иши тўғрисида"ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги "Архив иши бўйича меъёрий хужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги, 482-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси архив ишини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги, 49-сонли Қарори.

4. Маҳмудов Н., Мадвалиева А., Маҳкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.

5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.

6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

10-MAVZU: HUJJATLAR USTIDA ISH YURITISH TARTIBLARI.

Reja:

1. Hujjatlarni ro'yxatga olish va ijrosini nazorat qilish.
2. Hujjatlarni tizimlashtirish va yig'majildini shakllantirish.
3. Hujjatlarni arxivga tayyorlash, arxivda saqlash va berib turish.

Etibor bering!

Hujjatlarni ro'yxatga olish - hujjatlarni jo'natish va qabul qilish an'anasi.

Hujjatlar ijrosini nazorat qilish - hujjatlarda belgilangan tartibda ish yuritishni yo'lga qo'yish.

Hujjatlarni tizimlashtirish - yig'ilib qolgan hujjatlarni faoliyat turiga qarab tartibli jamlash, kodifikatsiyalash.

Hujjatlar yig'majildini shakllantirish - faoliyati tugallangan hujjatlarni saqlov birligiga keltirish.

Hujjatlarni arxivga tayyorlash - faoliyat chegarasi nihoyasiga yetgan qimmatli ma'lumotlarni konservatsiyalash.

Hujjatlarni arxivda saqlash va berib turish - saqlanayotgan hujjatlarni tarixiy, ilmiy- tadqiqot ishlarida belgilangan ichki tartibotlarga amal qilgan holda saqlash, dublikatlarini yaratish va istifoda etishga chiqarish, nashr etish.

Hujjatlar ustida ishlash tartibi - muayyan mavzu, faoliyatlarni o'zicla aks ettirgan qimmatli ma'lumotga ega bo'lgan hujjatlarni ilmiy iste'molga kiritish.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: "Loyiha", "Bahsmunozara", "Muammoli vaziyat", "T" shakl, "BBB" shakl, "Doira stoli", "Kichik guruhlarda ishlash".

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Архив иши тўғрисида"ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги "Архив иши бўйича меъёрий хужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги, 482-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси архив ишини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги, 49-сонли Қарори.

4. Маҳмудов Н., Мадвалиева А., Маҳкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.

5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.

6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

11-MAVZU: O'ZBEKISTONDA ARXIV ISHINI BOSHQARISHNING HUQUQIY ASOSLARI.

REJA:

1. Arxiv atamalari va tushunchalari.

2. O'zbekistonda arxiv ishi, uning huquqiy asoslari tarixi va shakllanishi.

3. Arxivlarda ish yuritish tamoyillari, manbalari va huquqiy jihatlari.

4. Arxivda ish yuritishning me'yoriy-huquqiy normalari (dispozitsiya, gipoteza, sanksiya) va ularning tarkibiy qismlari.

Etibor bering!

Архив atamalari va tushunchalari - muayyan tizim haqida ma'lumotlar yig'indisining faktori sifatida amal qiladi.

O'zbekistonda arxiv ishi - o'ziga xos ijodiy-huquqiy tizimga bog'liq holda faoliyat olib boradi.

Arxiv ishining huquqiy asoslari - O'zbekiston Respublika-sining mutasaddi tashkilotlar! tarafidan haqli ravishda shakllan-tiriladi.

Arxivlarda ish yuritish tamoyillari - qonunchilikda belgilab qo'yilgan ish faoliyatlari asosidagi qoidalardan iborat.

Manbalari va huquqiy jihatlari - asosan manbalar mutasaddi tashkilotlardan jamlangan tarixiy, zamonaviy hujjatlar bo'lib, ulardan foydalanishning o'ziga xos tomonlari huquqiy jihatdan ta'minlangan.

Arxivda ish yuritishning me'yoriy-huquqiy normalari - ish faolitini tashkillashtirishda asosan O'zbekistonda arxiv ishi hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari: "Loyiha", "Bahs-munozara", "Muammoli vaziyat", "T" shakl, "BBB" shakl, "Doira stoli", "Kichik guruhlarda ishlash".

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Архив иши тўғрисида"ги Қонуни. 2010 йил, 15 июнь.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил, 30 октябрдаги "Архив иши бўйича меъёрий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги, 482-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил, 3 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси архив ишини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги, 49-сонли Қарори.

4. Маҳмудов Н., Мадвалиева А., Маҳкамов Е., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.

5. Алимов И.А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005.

6. Jo'rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish uritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bikan ta'minlash, – Toshkent: Tafakkur - Bo'stoni, 2011.

**12-MAVZU:O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZAMONAVIY
DAVLAT ISH YURITISH NAZARIYASI, AMALIYOTI VA
BOSHQARUV TIZIMINI ME'YORIY HUJJATLAR BILAN
TA'MINLASHNING ENG MUHIM KONSTITUTSION
ASOSLARI**

REJA:

1. Konstitutsiyani o'rganish zarurati va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyanining qabul qilinishi hamda hokimiyat organlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mutlaq vakolatlari.
4. O'zbekistonda qonunchilik tashabbusi huquqi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga oid me'yorlar.
6. O'zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyati tarkibi va qonuniyatlari.
7. O'zbekiston huquq tizimidagi o'ziga xos ish yuritish uslublarining umumiy tavsifi.
8. Mustaqil O'zbekistonning o'ziga xos yangi milliy xuquqiy me'yorlar tizimi.
9. Fuqarolik huquqi va huquqning o'nga yaqin sohalarida ishlarning yuritilishi.
10. O'zbekistonda oila va mehnat huquqi, mehnat muhofazasi.
11. O'zbekistonda jinoyat huquqi va protsessida jinoyatga yarasha jazo qo'llashning yuritilishi.
12. O'zbekistonda sud tizimining o'ziga xos ish yuritish mexanizmlari.
13. O'zbekiston prokuratura tizimida ish yuritish faoliyati.
14. O'zbekistonda advokatura va uning ish yuritish tartibi, O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish maxsus organining ish yuritish faoliyati.

Etibor bering!

- Konstitutsiyani o'rganish zarurati va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyanining qabul qilinishi hamda hokimiyat organlari.

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari.
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mutlaq vakolatlari.
 - O'zbekistonda qonunchilik tashabbusi huquqi.
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga oid me'yorlar.
 - O'zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyati tarkibi va qonuniyatlari.
 - O'zbekiston huquq tizimidagi o'ziga xos ish yuritish uslublarining umumiy tavsifi.
 - Mustaqil O'zbekistonning o'ziga xos yangi milliy xuquqiy me'yorlar tizimi.
 - Fuqarolik huquqi va huquqning o'nga yaqin sohalarida ishlarning yuritilishi.
